

## EKOBOG` YARATISH VA UNING AHAMIYATI

Intizorxon Tursunaliyeva Rohatali qizi

*Namangan davlat universiteti biologiya kafedrasida 2-kurs magistranti*

**Annotation:** In this article, the following factors that should be taken into account *when creating an eco-garden (how to determine the composition of the soil, the selection of plant species and the biodiversity between plants and the ecosystem) and the importance of the eco-garden for society has been revealed.*

**Key words:** *Eco-garden, clay, biodiversity, ecosystem, resilience.*

### EKOBOG` YARATISH UCHUN TUPROQ TUZILISHINI O`RGANISH.

Tuproqning tuzilishini osongina aniqlash uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Qo`l kaftiga sig`adigan miqdorda yoki ikki osh qoshiqda tuproq olinadi

2. Asta-sekin tuproqni namlantiriladi, agar yaqin orada yomg`ir yoqqan bo`lsa unga suv quyish shart emas.

3. Qo`l bilan golf koptogi o`lchamida tuproq yumaloqlanadi

6. Keyin sekinlik bilan yumaloqlangan loy eziladi

7. Agar tuproq yuqorida aytilganidek yumaloqlanmasa, demak bu tuproq dag`al qumdir. Agar loy bosim ostida qanchalik oson parchalansa, uning tarkibida qum shunchalik ko`p bo`ladi. Agar loy ikkiga ajralsayu, juda ko`p bo`laklarga bo`linmasa, demak bu unumdor tuproqdir. Agar loyni qo`l bilan yassilansa, lekin bir bo`lakligicha qolsa va yopishqoqlikni his qilsangiz demak bu tuproqning ko`p qismini gil tashkil etadi.

Albatta tuproqda ma`lum miqdorlarda qum, gil, organik modda va loyqa bo`ladi. Tuproqdagi bu miqdorlarni bilish esa qanday o`simliklarni yetishtirish imkoni yuqoriroq ekanligini aniqlab beradi. Ularning miqdorini aniqlashning yana bir usuli yarmi suv bilan to`ldirilgan banka olinadi, keyin yuqorida namuna uchun olingan tuproqdan bir xil miqdorda solinadi, bankani og`zini berkitib shiddat bilan silkitiladi. Natijani ko`rish uchun biroz muddatga tinch qoldirilsa, tuproq qatlamlarga ajraydi. Bunda shag`al yoki dag`al qum pastiga cho`kadi, uning ustki qismida maydaroq qum yoki loyqa eng ustida gil joylashib qoladi. [1]

O`simliklarni ekobog`ga joylashtirishda ularning chidamlilik darajasi hisobga olinadi. Ular quyidagi guruhlariga bo`linadi.

1. **To`liq chidamli.** Bunday turdagi o`simliklar  $-15^{\circ}\text{C}$  haroratgacha bardosh bera oladi.



2. **Chidamli.** Bu o‘simliklar muzlash darajasidan past temperaturagacha ( $-4^{\circ}$ ) tiriklikni saqlay oladi.

3. **Yarim chidamli.** Ular qirovga chiday olmaydi. Ammo voyaga yetgan holatda  $5^{\circ}\text{C}$  yoki ozgina pastroq haroratda o‘sa oladi. Bu o‘simliklar iliqroq hududlardagi ko‘p yillik o‘simliklarni nazarda tutadi.

**Chidamsiz.** Bu o‘simliklar tropik o‘simliklar hisoblanib  $10-13^{\circ}\text{C}$  dan past haroratda nobud bo‘ladi.

Minglab o‘simlik turlari hayotning kichkina kosmik qismini ifodalaydi, ko‘plab hasharotlar qushlar va boshqa hayvonlar, shuningdek odamlarni oziqlantiradi. Kutilgani kabi daraxt va butalar tabiatni maydaroq turlarga nisbatan ko‘proq ta‘minlaydi, lekin hamma turlar ekosistemada bo‘lishi shart. O‘simliklarni to‘g‘ri tanlay olish, misol uchun piyozdoshlar oilasi vakillari asalarilar va kapalaklarni va changlanishga yordam beradigan hasharotlarni ko‘priq jalb qiladi bu esa tabiiy yashash muhitining yo‘qolishini oldini oladi. [2]

Daraxtlarni to‘g‘ri ekish uchun quyidagilarni e‘tiborga olish lozim.

1. Daraxtlarni kech kuzda yoki erta bahorda, qachon suv sathi yuqori va yomg‘ir ko‘p yog‘adigan vaqtda ekish

2. O‘simliklar yumshoq tuproqda o‘sishi uchun ildizlar uchun yetarlicha kattalikda chuqur qazish va ko‘chatlarni chuqurga joylashtirgandan so‘ng tuproq bilan to‘ldirayotganda tuproqni zich qilib to‘ldirmaslik

3. Chuqurga chirindi qo‘shmaslik, uning o‘rniga daraxt ko‘chati ekilgandan so‘ng daraxt asosi atrofini chirindi qatlami bilan qoplash [3]

Ekobog‘ ham ekosistema sifatida faoliyat ko‘rsatadi va bio-xilmaxillikning ta‘minlanishi ekobog‘ning davomiyligini saqlaydi. Shuningdek yetuk va yetilmagan ekotizim o‘rtasidagi farqlarni bilish lozim

Xususiyatlari	Yetilmagan ekotizim	Yetuk ekotizim
Jami biomassa maxsuldorligi	Past	Yuqori
Organik moddalar miqdori	Past	Yuqori
Mineral oзуqa manbai	Jonsiz (tosh, yomg‘ir)	Biologik (o‘simliklar, hayvonlar, gumus)
Oziq moddalar yo‘qotish	Yuqori	Past
Parchalanuvchila	Muhim emas	Muhim



uning roli, detritlar		
Dominant o`simliklar	Yillik	Ko`p yillik
Yildan-yilga qoladigan biomassa foizi	Past	Yuqori
Turli xil turlar soni	Odatda past	Yuqori
Simbiotik munosabatlar	Ozgina	Ko`pchilik
Barqarorlik	Past	Yuqori

1-jadval[4]

Ekobog` yaratishning ahamiyati haqida 2 toifa kishilar o`rtasida so`rovnoma o`tkazildi. Unga ko`ra 15 nafar oddiy shaxslar ekobog` bu tabiatdan bahra olish uchun ajoyib joy ekanligini ta`kidlashdi. Bu sohadan xabardor 12 nafar kishilar shahar hududlarida ekobog` yaratish iqlim o`zgarishini oldini olish, bio -xilmaxillikni saqlash uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini aytib o`tishdi.



1-rasm Ekobog`



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mary Horsfall “Creating your eco-friendly garden”Csiro publishing 2008  
3-bet
- 2.Zia Allaway “Creating eco-garden” 2021
- 3.Matt Rees-Warren “The ecological gardener” Chelsea green publishing  
2021 113-bet
4. Toby Hemenway “Gaia`s garden” Chelsea green publishing 2009 28-bet

